



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **145 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning soni 177 taga oshgan
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **312 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida viloyatimizda 408 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7taga kamaygan hamda ularning soni 96tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 145 taga (0,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 24,7 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,7 %), Asaka (9,3%), Shaxrixon (6,7 %) va Andijon (6,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 fevral holatiga)***

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	26,3	100	24,7	100
Oltinko'l	1,4	5,4	1,2	5,1
Andijon	1,8	6,9	1,6	6,6
Baliqchi	1,5	5,7	1,4	5,7
Boz	0,6	2,4	0,6	2,5
Buloqboshi	0,6	2,4	0,6	2,5
Jalaquduq	1,0	3,8	9,8	4,0
Izboskan	1,1	4,3	1,0	4,4
Ulug'nor	0,4	1,9	0,4	2
Qo'rg'ntepa	1,4	5,5	1,1	4,8
Asaka	2,3	8,9	2,3	9,3
Marxamat	1,1	4,3	1,1	4,5
Shaxrixon	1,8	7,2	1,6	6,7
Paxtaobod	0,8	3,3	0,8	3,3
Xo'jaobod	0,8	3,3	0,8	3,5
Andijon sh.	8,7	33,1	8,3	33,7
Xonobod sh.	0,3	1,4	0,3	1,5

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,1 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

faoliyat ko'rsatayotganlar
 faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,7 % savdoda, 19,7 % sanoatda, 8,7 % qurulishda, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,8 f.p), savdoda (-1,9 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p.dan), qurulishda (-0,1 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,1 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,0 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,7 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda (+0,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+2,2 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,0	2,8	-0,8
Savdo	25,7	27,6	-1,9
Axborot va aloqa	2,0	2,1	-0,1
Qurilish	8,7	8,6	-0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,7	4,8	-0,1
Sanoat	19,7	18,7	1,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,0	7,7	0,7
Tashish va saqlash	3,6	3,3	0,3
Boshqa turlari	26,6	24,4	2,2

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 176 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 153 taga yoki 15,0 % ga o'shgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 74 ta (42,0 %i), Andijon tumani 16 ta (9,0 %), Shaxrixon tumani 12 ta (6,8 %) va Baliqchi tumani 11 ta (6,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Boz tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor 2 ta (1,1 %), Xonobod shaxri 3 ta (1,7 %) va Paxtaobod tumani 4 ta (2,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 136 ta (77,3 %), savdoda 12 ta (6,8 %), qurilishda 7 ta (4,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (3,4 %), boshqa turlarida esa 6 ta (3,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ta (2,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,6 %), tashish va saqlashda 3 ta (1,7 %), va tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20,4 mingtani tashkil qilgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7381 tasi (36,7 %) Andijon shahriga, 1949 tasi (9,5 %) Asaka, 1379 tasi (6,7 foizi) Andijon tumani, 1351 tasi (6,6 foizi) Shaxrixon tumani hamda 1130 tasi (5,5 foizi) Baliqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6356 tasi (31,1 %) – savdoda, 4826 tasi (23,6 %) - sanoatda, 2141 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1701 tasi (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1165 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 881 tasi (4,3%) - tashish va saqlashda, 502 tasi (2,5 %) axborot va aloqa sohasida, 417 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2420 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holatiga bilan 316 tadan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 11,5 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (93 ta), Asaka tumanida (32 ta), Andijon tumanida (19 ta) va Shaxrixon tumanida (19 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (3 ta), Buloqboshi (6 ta) hamda Boz (9 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (95 ta), savdoda (57 ta), qurilishda (50 ta) va tashish va saqlashda (33 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa boshqa soxalarda (19 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (17 ta), axborot va aloqada (12 ta) va tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 503 tani tashkil etib, ulardan 473 tasi yoki 94,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **10,5 %** ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda oilaviy korxonalarning 38,5 % yoki 4640 tasi sanoat, 43,1 % yoki 204 tasi 26,4 % yoki 125 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,6 % yoki 55 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 8,0 % yoki 38 tasi savdo, 1,5 % yoki 7 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, hamda 7,8 % yoki 37 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
 Statistik registrlarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: **Sh.Haydarov**
 (0371) 230-82-71,72

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
 registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
 tayyorlangan